

2-mavzu

Iqtisodiy tizimlar va doiraviy aylanishlar modeli

*Mavzuning qisqacha tafsiloti.
Bu mavzuda jamiyatdagi ishlab
chiqarish munosabatlarini
asosini tashkil etuvchi iqtisodiy
tizimlarni o`rganamiz. Ishlab
chiqarish munosabatlari ishlab
chiqarish kuchlariga javob
bermasa iqtisodiy tizimlar
almashinuvi ro`y beradi.
Ishlab chiqarish jarayonining
mazmuni va doiraviy
aylanishlar modellari mazmuni
ochib beriladi.*

REJA

- 1. Iqtisodiy tizimlar va ularning turli modellari**
- 2. Ishlab chiqarish jarayonining mazmuni**
- 3. Doiraviy aylanish va uning modellari**

1-savol ►

Iqtisodiy tizimlar va ularning turli modellari



Har bir davrda va makonda amal qilayotgan iqtisodiy munosabatlar majmuasi iqtisodiyotni tashkil qilish shakllari, xo‘jalik mexanizmi va iqtisodiy muassasalar bilan birgalikda iqtisodiy tizimni tashkil qiladi.

Har bir jamiyat o‘z harajatlarini pasaytirishga yordam beruvchi mos keluvchi mexanizm va ma‘lum turdagi ishlanmalariga ega bo‘lgan iqtisodiy tizimini ishlab chiqishi kerak bo‘ladi. Iqtisodiy tizim qaysi tovarlarni ishlab chiqilishini, qanday ishlab chiqilishini, kimlar ularni harid qilishini, tovar ayriboshlovni qanday amalga oshirishni va texnologik muvaffaqiyatga qanday erishish mumkinligini belgilab olishi kerak.

Har qanday iqtisodiy tizim bevosita jamiyat va davlat o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlar negizida shakllanadi

Iqtisodiy tizimlar mahsulot ishlar chiqarish uchun kerak bo‘ladigan omillarga kimlar egalik qiladi va iqtisodiy faoliyatni boshqarish, tartibga solish va rag‘batlantirishda qo‘llaniladigan metodlarga ajraladi¹.

Iqtisodiy nazariyada ko‘pincha iqtisodiy tizim tushunchasini ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanish darajasi bilan bog‘lab turkumlashga harakat qilinadi.

Iqtisodiy tizimlarning ikki asosiy qutblari mavjud: Ma‘muriy buyruqbozlik tizimi va bozor tizimi.

Bozor iqtisodiyotiga qarama-qarshi tizim ma‘muriy-buyruqbozlik iqtisodiyoti hisoblanadi. Bu tizim amalda barcha moddiy resurslarga ijtimoiy, aniqrog‘i, davlat mulkchiligining hukmronligi va ma‘muriy organlar tomonidan iqtisodiy qarorlarning markazlashgan tartibda qabul qilinishi bilan tavsiflanadi. Foydalanadigan resurslarning hajmi, mahsulotning tarkibi va taqsimlanishi, ishlab chiqarishni tashkil qilish kabilarga tegishli barcha muhim qarorlar markaziy boshqarish organlari tomonidan qabul qilinadi.

Ma‘muriy buyruqbozlik tizimi kommunizm yoki sotsializm tizimi nomi bilan ham ataladi. Unday tizimda, hukumak ko‘pgina mulk

Iqtisodiy taraqqiyotda muhim bosqich hisoblangan tizim bozor iqtisodiyoti tizimidir.

resurslariga egalik qiladi va qaror qabul qilish markaziy iqtisodiy boshqaruv asosida kechadi.



¹ Campbell R. McConnell, Stanley L. Brue. Economics: Tamoyillar, muammolar va siyosat. O‘n ettinchi Nashr. 40 b.

Hukumat tomonidan belgilab qo'yilgan markaziy boshqaruv komiteti resurslardan foydalanish, mahsulotlarni ishlab chiqarish va tarqatish va ishlab chiqarishni tashkillashtirishni amalga oshiradi. Hukumat o'z ko'rsatmalariga binoan ishlab chiqarishga ixtisoslashtirilgan ko'pgina korxonalariga ham egalik qiladi. Markaziy boshqaruv komiteti ishlab chiqarilishi ko'zda tutilgan mahsulotlarni belgilab, huddi shu mahsulotlarni ishlab chiqish uchun qancha resurslar ketishini aniqlab beradi. Kapital va iste'mol tovarlari ishlab chiqarilishi teng taqsimlanadi va iste'mol tovarlari markaziy boshqaruv komitetining uzoq muddatli ishlanmalari asosida moliyalashtiriladi.



Sof rejali iqtisodiyot hukumat egaligidagi mulk resurslari bilan ta'minlash uchun markaziy rejaga tayanadi. Ammo,

real hayotda, Sovet Ittifoqi 1992 yilda tanazzulga uchrashidan avval xususiy mulkdorlikka yo'l ochib berib, baz'i bozorlarni birlashtirib yuborgan edi. Rossiya va Yevropaning ko'p mamlakatlarida olib borilayotgan hozirgi islohotlar o'zlarining rejali iqtisodiyotlarini kapitalistik va bozorga yo'naltirilgan tizimlarga o'zgartirib yubordi. Xitoy islohotlari hali u darajaga yetmagan, lekin ular markaziy boshqaruv tizimiga



bog'liqligini qisqartirmoqda. Garchi Xitoy hukumati kapital va resurslarga keng miqyosda egalik qilsada, mamlakatning o'z iqtisodiyotini tashkilashtirish va tartibga solishda erkin bozorlarga bog'liqlik talabi oshib boraverdi. Shimoliy Korea va Kuba markaziy rejali iqtisodiyot tamoyillariga amal qilayotgan mamlakatlarga misol bo'la oladi. Ma'muriy buyruqbozlik tizimidan foydalanayotgan boshqa mamlakatlar sirasiga Turkmaniston, Laos, Belarussiya,

“Laissez-faire”
terminini fransuz
tilidan tarjima
qilinganda
“bilganingni qilaver”
degan ma'noni
anglatib, bu
hukumatni
iqtisodiyotga
aralashivini
cheklaydi.

Myanma va Eron kiradi.²

Bozor iqtisodiyoti tizimi asosan ikki bosqichga egadir. Birinchisi erkin raqobatga asoslangan klassik bozor iqtisodiyoti bo'lib, ba'zi adabiyotlarda uni sof kapitalizm deb ham yuritiladi. Ikkinchisi esa hozirgi zamon rivojlangan bozor iqtisodiyoti bo'lib, uni aralash iqtisodiyot tizimi deb ham yuritiladi.

Ma'muriy buyruqbozlik tizimiga qarama-qarshi turgan qutb bozor tizimi yoki kapitalizm deb nomlanadi. Ushbu tizim iqtisodiy faoliyatni tashkilashtirishda va boshqarishda narx va bozorlardan foydalanish hamda resurslarga shahsiy egalik qilish bilan xarakterlanadi. Bunda ishtirok etganlar o'z qiziqishlariga ko'ra harakat qiladi. Insonlar va ishlab chiqaruvchilar iqtisodiy maqsadlariga tovar, iste'mol va mehnatga bog'liq qarorlari orqali erishadilar. Bunday tizim kapitalga shahsiy egalikka yo'l ochadi, narxlar vositasida muomalaga kirishadi, sotuvchi va haridorlar to'qnash keladigan bozorlar orqali iqtisodiy faoliyatni muvofiqlashtiradi. Tovarlar va xizmat turlari ishlab chiqariladi va resurslar istagan odamlarga taqsimlab beriladi. Bu yerda resurs va tovarlarni sotuvchilar va sotib oluvchilarorasida raqobat yuzaga keladi. Shunday qilib, iqtisodiy qaror qilish keng tus oladi.

Shuningdek, yuqori darajadagi iqtisodiy foyda ishlab chiqaruvchilar va tadbirkorlarni yangidan yangi tovarlarni ishlab chiqish turtki bo'ladi. Sof kapitalizm yoki fransuz tilidagi termin bilan aytganda “laissez-faire” kapitalizm sharoitida bozor tizimini boshqarish uchun muhit yaratishda



² Campbell R. McConnell, Stanley L. Brue. Economics: Tamoyillar, muammolar va siyosat. O'nettinchi Nashr. 40b.

va xususiy mulkdorlikni boshqarivshda hukumatning o'zni cheklangan bo'ladi. Chunki bunday aralashuv bozor tizimini ko'ngildagidek ishlashiga to'sqinlik qiladi. Lekin AQSh va dunyoning ko'p mamlakatlari boshidan o'tkazgan kapitalizm sharoitida hukumat iqtisodiyotda muhim rol o'ynaydi. Bu holatda u nafaqat iqtisodiy faoliyat uchun qoidalar ichlab chiqadi balki, iqtisodiy turg'unlik va yuksalishga zamin yaratadi va ishlab chiqarilmay qolishi mumkin bo'lgan tovar va xizmat turlarini yo'lga qo'yilishiga yordam beradi hamda daromat taqsimlanishini boshqarib boradi. Shunga qaramay, hukumat Tovarlarni va xizmat turlarini qanday ishlab chiqarish, nima ishlab chiqarish va qanday sotish borasida yetakchi iqtisodiy kuch emas. O'sha yetakchi kuch endi bozordir.³

Erkin raqobatga asoslangan bozor iqtisodiyoti resurslarga xususiy mulkchilik, iqtisodiy faoliyatda va tadbirkorlikda erkinlik, iqtisodiy jarayonlarni tartiblashda va uyg'unlashtirishda bozor mexanizmidan foydalanish bilan tavsiflanadi. Bunday tizimda har bir iqtisodiy sub'ektning xatti-harakati uning xususiy manfaatiga asoslanadi. Ular o'zlari qabul qilgan xo'jalik yechimlari va qarorlari asosida daromadlarini eng yuqori darajada yetkazishga intiladilar. Bu alohida qabul qilingan qarorlar bozor tizimi yordamida uyg'unlashtiriladi. Raqobat sharoitida tovarlarning ishlab chiqarilishi, resurslarning taklif qilinishi shuni bildiradiki, har bir mahsulot va resurslarning ko'plab mustaqil harakat qiluvchi xaridor va sotuvchilari mavjud bo'ladi. Bu yerda iqtisodiy jarayonlarga davlatning aralashuvi cheklangan tavsifga ega bo'ladi. Shu sababli davlatning roli xususiy mulkni himoya qilish va erkin bozorning amal qilishiga qulay sharoit yaratuvchi huquqiy tartiblar o'rnatishdan iboratdir.

Hozirgi zamon bozor iqtisodiyoti. Hozirgi davrda real hayotda bozor iqtisodiyoti sof bozor mexanizmi va rejali iqtisodiyot unsurlarini mujassamlashtiradi. Mulkdorlikning har xil shakllari, tadbirkorlikning turli yo'nalishlari mavjud bo'ladi, unda rejalashtirish, prognozlash, aholini ijtimoiy himoyalash kuchayadi. Masalan, AQSh iqtisodiyoti hozirgi davrda oldingi erkin bozor iqtisodiyotidan sezilarli farq qiladi. Bu farqlar quyidagilarda ko'rinadi:

birinchidan, mulkning bir qismi davlat qo'lida bo'lib, u iqtisodiyotda faol rol o'ynaydi. Bu iqtisodiyotning barqarorligi va o'sishi uchun sharoit yaratishda, bozor tizimi yetarli darajada ishlab chiqarmaydigan yoki umuman yetkazib bermaydigan ayrim tovarlar va xizmatlar bilan ta'minlashda, daromadlar taqsimlanishini o'zgartirishda va shu kabilarda namoyon bo'ladi;

ikkinchidan, sof kapitalizmdan farqli o'laroq, AQSh iqtisodiyotida yirik korporatsiyalar va kuchli kasaba uyushmalari shaklidagi qudratli iqtisodiy tashkilotlar mavjud.

Bu yerda, shuni alohida ta'kidlash lozimki, xususiy mulkdorlik va bozor tizimiga suyanish, ijtimoiy mulkdorlik va markazdan rejalashtirish har doim ham bir vaqtda mavjud bo'lmasligi mumkin. Masalan, sobiq millatchi Germaniya iqtisodiyoti

³ Campbell R. McConnell, Stanley L. Brue. Economics: Tamoyillar, muammolar va siyosat. O'nettinchi Nashr. 40-41b.

avtoritar kapitalizm deb atalgan, chunki mulkchilik xususiy bo'lib qolsada, mamlakat iqtisodiyoti qattiq nazorat ostiga olingan va markazdan boshqarilgan. Buning teskarisi, bozor sotsializmi deb atalgan sobiq sotsialistik Yugoslaviya iqtisodiyotida resurslarga ijtimoiy mulkchilik xos bo'lgan va bir vaqtda iqtisodiy faoliyatni tashkil qilish va boshqarishda erkin bozor asosida olib borilgan. Shvetsiya iqtisodiyotida ham 90% dan ortiq xo'jalik faoliyati xususiy firmalarda to'plangan bo'lsada, davlat iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va daromadlarni qayta taqsimlashda faol qatnashadi. Hozirgi vaqtda Xitoy Xalq Respublikasida davlatning markazlashgan holda iqtisodiyotga aralashuvi va rejalashtirish tizimi saqlanib qolgan holda bozor mexanizmlari muvaffaqiyat bilan qo'llanilib, barqaror va tez sur'atlar bilan iqtisodiy o'sishga erishmoqda.

2-savol ►

Ishlab chiqarish jarayonining mazmuni

Ishlab chiqarish jarayoni – bu kishilik jamiyatining amal qilishi va rivojlanishi uchun zarur bo'lgan moddiy va ma'naviy ne'matlarni yaratishga qaratilgan maqsadga muvofiq faoliyatdir.

Jamiyatning iqtisodiy asosini, inson hayotiy faoliyatining manbaini tushunish uchun ishlab chiqarish jarayonining mazmunini ko'rib chiqish zarur.

Ishlab chiqarish jarayoni – bu kishilik jamiyatining amal qilishi va rivojlanishi uchun zarur bo'lgan moddiy va ma'naviy ne'matlarni yaratishga qaratilgan maqsadga muvofiq faoliyatdir. Moddiy va ma'naviy ne'matlar yaratish, turli xizmatlar ko'rsatish jarayoni kishilar iqtisodiy faoliyatining asosiy tomonidir.

Ma'lumki, har qanday ishlab chiqarish, birinchi navbatda, mehnat jarayonidir yoki boshqacha qilib aytganda, tabiatdagi bor narsalarning ko'rinishini o'zining iste'moli uchun muvofiq holga keltirish uchun qilingan mehnatfaoliyatidan iboratdir. Masalan, kishilar tabiatda mavjud bo'lgan yerdan foydalanib turli xil dehqonchilik, chorvachilik mahsulotlarini yetishtiradilar. O'rmonlardagi daraxtlardan foydalanib, ularning shaklini o'zgartirib, turli xil yog'och buyumlar yasaydilar, uylar quradilar. Yer bag'rida (konlarda) mavjud bo'lgan turli rudalar (temir, mis, ruh, qo'rg'oshin va h.k.), mineral xomashyolardan foydalanib, o'zlari uchun zarur iste'mol buyumlari, ishlab chiqarish vositalari yaratadilar. Ana shu mehnat jarayonida kishilar, eng avvalo, tabiat bilan, uning kuchlari va ashyolari bilan hamda bir-birlari bilan o'zaro ma'lum munosabatda bo'ladilar.

Insonlardagi mehnat taqsimoti jamiyatga quyidagicha yordam berishi mumkin:

Ixtisoslashish inson qobiliyatining turli hilligidan foydalanadi. Agar

Ma'mur kuchli bo'lsa va yaxshi futbol o'ynay olsa, Feruza chiroyli, chaqqon va kuylay oladi. Bundan Ma'mur futbol o'ynasa va Feruza ajoyib ashulani kuylab bersa, ularning qobiliyatlarini taqsimlanishi yuzaga keladi


• Ixtisoslashish inson bir turdagi faoliyat turi bilan shug'ullanish orqali o'sha faoliyat turini yaxshi o'zlashtirib olishi mumkin bo'ladi. Agar ikki

insonning qobiliyatlari bir hil bo'lsa ham, Ixtisoslashish foydali tus oladi. Inson ko'p turli ishlar bilan shug'ullanib ketkizgan vaqti evaziga bir turdagi yumush bilan band bo'lib, uni mukammal egallab olishi mumkin. Huquqshunos bo'lish uchun bu sohani ko'p yillar o'qib, o'rganish talab etiladi.

- Ixtisoslashish vaqtni tejaydi. Inson bir ishni amalga oshirish uchun sarflagan vaqti orqali boshqa turdagi bir necha ishlarga sarflagan vaqtdan tejab qoladi. Shuningdek, inson o'zi qodir bo'lmagan ishga vaqt sarflamslik orqali ham vaqtdan yutishi mumkin.

Yuqoridagilarni barchasini hisobga olsak, Ixtisoslashish jamiyatni cheklangan resurslardan ko'proq natijaga erishishlarini belgilab beradi.

Jo'g'rofiy Ixtisoslashuv Ixtisoslashish, shuningdek, ham hududiy ham xalqaro miqyosda amal qiladi. Nebraska shtatida apelsinlar o'stiriladi, ammo u yerning tabiati, iqlimi yaxshi bo'lmagani tufayli apelsinlarni narxi juda qimmat bo'lish mumkinligini tushunsa bo'ladi. Floridada bug'doyni o'stirish mumkin, lekin geografik sabablarga ko'ra uning narxi baland bo'lishi mumkin. Shuning uchun, har bir shtat o'z iqlimiga mos keladigan mahsulotlarni



yetishtirsa, mahsulotlarning narxlari bunchalik baland bo'lmaydi. Bu holatni butun dunyo misolida ham talqin etish mumkin. Bu bilan cheklangan tabiiy resurslardan foydalanib, ko'proq samaradorlikka erishsa bo'ladi⁴.


Kishilar o'zlarining ongli, maqsadga muvofiq unumli mehnati bilan tabiat moddalarining shakllarini o'zgartiradilar va iste'mol uchun zarur bo'lgan mahsulotni vujudga keltiradilar. Mehnat jarayonida kishilar hamda tabiat o'rtasidagi moddalar almashinuvi bilan birga insonning o'zi ham har tomonlama kamol topib boradi, ya'ni kishilar o'zining mehnatga bo'lgan qobiliyatini, bilimini oshiradi va ularni amalda qo'llashni kengaytirib boradi. Shunday qilib, ishlab

⁴ Campbell R. McConnell, Stanley L. Brue. Economics: Tamoyillar, muammolar va siyosat. O'n ettinchi Nashr. 43-44 b.

chiqarish jarayoni iste'mol qiymatlarni vujudga keltirish uchun maqsadga muvofiq qilinadigan harakatdir, tabiat yaratgan narsalarni inson iste'moli uchun o'zlashtirib olishdir, inson bilan tabiat o'rtasidagi modda almashuvining umumiy shartidir, inson hayotining abadiy tabiiy sharoitidir.

Ishlab chiqarishning **tarkibiy tuzilishi** muhim ahamiyat kasb etib, u turli sohalar, bo'linmalar, yaratilayotgan mahsulotlar va ko'rsatilayotgan xizmatlar turlarini ifodalaydi. Eng avvalo, ishlab chiqarishni **moddiy ishlab chiqarish va nomoddiy ishlab chiqarish sohalariga** ajratish lozim (3.2-chizma).

O'z navbatida moddiy ishlab chiqarish sohasi **moddiy ne'matlarni ishlab chiqarish** (masalan, avtomobil, oziq-ovqat mahsulotlari, kiyim-kechaklar va h.k.) va **moddiy xizmatlar ko'rsatish** (transport, aloqa, savdo, maishiy xizmat va boshqalar)dan iborat bo'ladi.



3.2-chizma

Ishlab chiqarishning tarkibiy tuzilishi

Nomoddiy ishlab chiqarish sohasi ham **nomoddiy ne'matlarni ishlab chiqarish** (masalan, musiqa asarlari, badiiy va ilmiy asarlar, ixtiro va kashfiyotlar) va **nomoddiy xizmatlar ko'rsatish** (huquqiy maslahatlar berish, o'qitish, malaka oshirish va boshqalar)ga ajraladi. Bu sohalar bir-biri bilan chambarchas bog'langan holda rivojlanadi va bir-biriga ta'sir ko'rsatadi.

Moddiy ishlab chiqarish sohasi o'z navbatida ikki bo'linmadan iborat bo'lib, birinchi bo'linmada **ishlab chiqarish vositalari** (stanok, mashina, asbob-uskuna, xomashyo va turli materiallar) yaratilsa, ikkinchi bo'linmada esa **iste'mol buyumlari** ishlab chiqariladi.

Birinchi bo'linmada ishlab chiqarishdan chiqqan tovarlar shu yilning o'zida ikkinchi bo'linmada va xizmat ko'rsatish sohalarida ishlab chiqarish vositasi sifatida ishlatilishi mumkin, ikkinchi bo'linmada yaratilgan tovarlar va nomoddiy soha xizmatlari o'z navbatida birinchi bo'linma uchun zarurdir. Shuning uchun ular o'rtasida doimo iqtisodiy aloqalar va munosabatlar sodir bo'lib turadi.


Bozor iqtisodiyoti sharoitida har qanday ishlab chiqarish, bir tomondan iste'mol qiymatini (naflilikni) yaratishdir, ikkinchi tomondan, moddiy vositalar va mehnatning sarflanishi, yangi qiymatning yaratilishi, boshqacha qilib aytganda, qiymatning o'sish jarayonidir.

Har qanday mahsulot, shu jumladan, bozor sharoitidagi yoki unga o'tish davridagi mehnat mahsuli ham ikki xil xususiyatga ega: iste'mol qiymatiga, ya'ni ma'lum bir naflilikka va qiymatga ega bo'lib, jonli va buyumlashgan mehnat sarfining ma'lum miqdorini o'zida mujassamlashtiradi. Bu tovarning o'zaro bog'liq va hamisha bir-birini taqozo qiladigan ikki tomonidir (bu haqda keyingi bobda batafsilroq to'xtalamiz). Shuning uchun ham ishlab chiqarish jarayoniga hamisha uning pirovard maqsadi bilan birgalikda qaraladi. Ishlab chiqarishning maqsadi cheklangan resurslardan unumli foydalanib, kishilar ehtiyojini qondirish ekan, uning samarasi tovar va xizmatlarning natural va qiymat jihatdan o'sishida ko'rinadi. Shu nuqtai nazardan olganda ishlab chiqarish jarayoni hamisha naflilikni, ya'ni iste'mol qiymatini yaratish, ko'paytirish va qiymatlarning o'sish jarayoni hisoblanadi, uning asosiy maqsadi esa, iste'mol qiymatini, ya'ni naflitovarni yaratishdan iborat bo'ladi.

Ishlab chiqarishning cheklangan resurslardan foydalangan holda kishilar ehtiyojini qondirishga qaratilishi va shunga zarur bo'lgan sifat va miqdorda iste'mol qiymati yaratishni bosh maqsad qilib qo'yishi uning ijtimoiy yo'nalishini ifoda etadi. Lekin bu umumiy ijtimoiy yo'nalish aniq kishilarning, tadbirkorlarning manfaati bilan bog'langandagina amalga oshadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida yoki unga o'tish davrida har bir mulk egasi yoki tadbirkor ma'lum miqdorda foyda olishni, sarflangan vositalariga, pul mablag'lariga nisbatan ko'proq qiymatga ega bo'lishni maqsad qilib qo'yadi. Shuning uchun ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayoni bir tomondan, iste'mol qiymatlarini yaratish jarayoni bo'lsa, ikkinchi tomondan, qiymatning o'sish jarayoni bo'lib hisoblanadi. Masalan, tadbirkor ishlab chiqarishni tashkil etish uchun 10 mln. so'mlik paxta tolasi sotib oldi deylik. Toladan ip yigirish uchun qo'llanilgan asosiy vositalar amortizatsiyasi, energiya va boshqa xarajatlar 2 mln. so'mni, ish haqi 3 mln. so'mni tashkil etib, 3 mln. so'mlik foyda oladigan bo'lsa, yaratilgan mahsulotning qiymati 18 mln. so'mni, qo'shilgan qiymat 8 mln. so'mni tashkil etadi.

Agar biz 8 mln. so'mlik qo'shilgan qiymatdan 2 mln. so'mni amortizatsiya, energiya va boshqalardan iborat moddiy xarajatlar, ya'ni oldindan yaratilgan qiymatlar deb qarajak, 6 mln. so'mlik qiymat, ya'ni 3 mln. so'mlik ish haqi va 3 mln. so'mlik foyda shu ishlab chiqarish jarayonida hosil qilingan yangi qiymat hisoblanadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarish jarayonining ikki tomonini quyidagicha ifoda etishimiz mumkin


Ishlab chiqarish jarayonini ikki tomonlama tahlil qilib o'rganish uning mazmunini to'g'ri tushunish imkonini beradi va turli xil chalkashliklar, munozarali tortishuvlarga chek qo'yadi. Jumladan, shuni ta'kidlash lozimki, ishlab chiqarish jarayonida ishtirok etayotgan ishlab chiqarish vositalari qiymati ko'paymagan holda, aniq mehnat bilan ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlar qiymatiga o'tkaziladi.



3.3-chizma

Ishlab chiqarish jarayonining ikki tomoni

Ishlab chiqarish vositalari naflilikni yaratishda to'liq qatnashadi, qiymatning tashkil topishida esa qisman, ya'ni uning eskirgan qismi qatnashadi. Bu ishlab chiqarish jarayonida qatnashayotgan ayrim tabiiy kuchlar (masalan, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishda quyosh energiyasi) qiymatga ega emas, shuning uchun ular tovarning iste'mol qiymatini hosil qilishda omil sifatida qatnashsada, lekin qiymatning tashkil topishida, uning ko'payishida qatnashmaydi. Demak, ishlab chiqarilgan tovarlarning naflligini yaratishda har uchala omil: yer, kapital, ishchi kuchi qatnashadi, qiymatning tashkil topishida esa mehnatning o'zi qatnashadi (3.4-chizma).



3.4-chizma

Tovar va xizmatlar nafiligi va qiymatining yaratilishida ishlab chiqarish omillarining roli

Ishlab chiqarish jarayonining ikki tomonlama tabiati uning natijalarining ham ikki tomoni borligini ko'rsatadi.

Ishlab chiqarish jarayonining mazmunini chuqur anglash uchun eng avvalo, ishlab chiqarish omillari va ularning tarkibiy qismlari bilan tanishib chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Bozor iqtisodiyoti qancha darajada ihtisoslashuvga bog'liq bo'lishini tasavvur etish g'ayrioddiy holatdir. Ixtisoslashish insonlarni, firmalarni, ma'lum hudud va mamlakatni o'z resurslaridan foydalanib, yaxlit xizmat va tovar turlaridan ko'ra ularni bir yoki bir necha turlarini ishlab chiqarish deganidir. O'shatovarvaxizmatlarkeyinchalik to'liq ko'lamdagi tovar va xizmatlarga almashtiriladi. Ko'p iste'molchilar o'zlari iste'mol qilayotgan mahsulotlarni hech birini ishlab chiqarishmaydi hamda ishlab chiqargan taqdirda ularni kam qismini iste'mol qiladi yoki umuman iste'mol qilishmaydi. Avtomobil sanoatida ishlayotgan ishchilarning o'rtacha 5/9 foizigina o'z shahsiy avtoulavlariga ega. Ko'p fermerlar mahalliy savdo do'konlariga sut yetkazib beradilar, ammo boshqa do'konlardan saryog' sotib oladilar. O'z- o'zini ta'minlaganlik holati samarasizlikka olib borishini odamlar ancha yillar avval tushunib yetishgan. Hamma ishning ustasi bo'lgan inson juda serg'ayrat bo'lishi mumkin, lekin samarador ishlab chiqaruvchi aylana olmaydi⁵.

Mehnat qurollari deb, inson uning yordamida tabiatga, mehnat predmetlariga ta'sir qiladigan vositalarga aytiladi

Ishlab chiqarish jarayonida bevosita qo'llaniluvchi barcha resurslar ishlab chiqarish omillari deyiladi. Iqtisodiyotning tizimi va shaklidan qat'iy nazar uchta omil: ishchi kuchi, mehnat qurollari va mehnat predmetlari bo'lishi shart. Bundan ko'rinadiki, ishlab chiqarish omillari, iqtisodiy resurslardan farqli o'laroq, o'z ichiga faqat ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonida bevosita ishtirok etuvchi unsurlarni oladi. Misol uchun, iqtisodiy resursning muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblangan pul resurslari ishlab chiqarish jarayonida bevosita qo'llanilmaganligi sababli, ishlab chiqarish omili bo'la olmaydi. Ishlab chiqarish omillarining mohiyatini yanada kengroq tushunish uchun ularning har birini alohida ko'rib chiqamiz.

Ishchi kuchi deb insonning mehnat qilishga bo'lgan aqliy va jismoniy qobiliyatlarining yig'indisiga aytiladi. Ishchi kuchi mehnat qobiliyatiga ega bo'lgan kishilar uchun xosdir. Lekin ishchi kuchi insonning o'zi emas yoki uning mehnati ham emas, uning qobiliyatidan iboratdir.

⁵ Campbell R. McConnell, Stanley L. Brue. Economics: Tamoyillar, muammolar va siyosat. O'nettinchi Nashr. 42 b.

Mehnat qurollari deb, inson uning yordamida tabiatga, mehnat predmetlariga ta'sir qiladigan vositalarga aytiladi. Bularga mashinalar, stanoklar, traktorlar, qurilmalar, uskunalar va boshqalarni misol keltirish mumkin.


Mehnat predmetlari esa bevosita mehnat ta'sir qiladigan, ya'ni mahsulot tayyorlanadigan narsalardir. Yer, suv, xomashyo va boshqa turli materiallar mehnat predmetining asosiy turlarini tashkil etadi. Mehnat predmetlari tabiatda tayyor holda uchrashi mumkin yoki oldingi davrdagi mehnat mahsuli, ya'ni xomashyo bo'lishi mumkin.

Mehnat qurollari va mehnat predmetlari birgalikda ishlab chiqarish vositalari deb yuritiladi. Bu esa mehnat jarayonining tabiatidan kelib chiqadi; shuning uchun ham ishlab chiqarish vositalari barcha ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar, insoniyat taraqqiyotining hamma bosqichlari uchun xosdir.

Ishlab chiqarish omillari insoniyat taraqqiyotining hamma bosqichlari uchun umumiy bo'lsada, bu omillarga turli adabiyotlarda turlicha ta'rif beriladi. Jumladan, «Siyosiy iqtisod» darsliklarida ishlab chiqarishning ikki omili: moddiy va shaxsiy omillari mavjudligi tan olinadi. Bunda mehnat qurollari va mehnat predmetlaridan iborat ishlab chiqarish vositalari ishlab chiqarishning moddiy omilini tashkil etadi, ishchi kuchi esa uning shaxsiy omili deb yuritiladi. Hozirgi bozor iqtisodiyotiga doir ko'pchilik adabiyotlarda esa ishlab chiqarishning to'rt omili: mehnat, kapital, yer, tadbirkorlik qobiliyati tan olinadi.

Bu yerda ishchi kuchi bilan mehnat o'rtasidagi farqni anglab olish juda muhimdir. Chunki, mehnat insonning, to'g'rirog'i ishchi kuchining ma'lum maqsadga qaratilgan faoliyati jarayoni bo'lib, ishchi kuchi tushunchasidan tamomila farqlanadi. Ko'pgina adabiyotlarda esa ularga sinonim (bir xil tushuncha) sifatida qaralib, bunday holat ko'plab chalkashliklarni keltirib chiqaradi. Bizga ma'lumki, ishchi kuchi insonning mehnatga bo'lgan aqliy va jismoniy qobiliyati, uning bilim, malaka darajasi bilan birgalikda ishlab chiqarishda qatnashishiga tayyor turgan omillardan biri hisoblanadi. Mehnat esa barcha omillarning, shu jumladan, ishchi kuchining ishlab chiqarish vositalari bilan qo'shilishi natijasida sodir bo'ladigan va ma'lum samara olishga qaratilgan faoliyatdir.

Shuning uchun biz mehnat degan tushunchani emas, balki ishchi kuchi degan tushunchani ishlab chiqarishning omili deb bilamiz va ishlab chiqarish omillari ishchi kuchi, kapital, yer va tadbirkorlik qobiliyatidan iborat deb ta'kidlaymiz (3.1-chizma).



3.1-chizma

Ishlab chiqarish omillarining turkumlanishi

Ishchi kuchi insonning mehnatga bo'lgan aqliy va jismoniy qobiliyatlarining yig'indisi bo'lganligi uchun bozor iqtisodiyoti davrida inson emas, mehnat jarayoni ham emas, balki ishchi kuchi tovar sifatida sotiladi va sotib olinadi. Ishchi kuchining boshqa tovarlar kabi qiymati va nafliligi mavjuddir va binobarin, uning bozori ham mavjud bo'ladi. Shuning uchun hozirgi kunda keng qo'llanilayotgan mehnat bozori tushunchasi o'rniga ishchi kuchi bozori, mehnat resurslari o'rniga ishchi kuchi resurslari deyilsa to'g'ri va tushunarli bo'lar edi.

Kapital tushunchasi ham turli adabiyotlarda turlicha talqin qilinadi. Ko'pchilik kapital tushunchasini tarixiy tushuncha deb qarab, uning kapitalizmga xosligini isbotlaydi va kapitalni o'z egasiga qo'shimcha qiymat keltiruvchi qiymat, o'z-o'zidan ko'payuvchi, o'suvchi qiymat deb hisoblaydi. Ayrim g'arb iqtisodchilari ham, masalan, J.Klark, L.Valras, I.Fisherlar kapitalga daromad keltiruvchi, foyda keltiruvchi, foiz keltiruvchi qiymat deb qaraydilar.

Qator g'arb iqtisodchilarining jumladan, D.Xayman, P.Xeyne, E.Dolon, J.Robinson, R.Dornbush va boshqalarning fikrini keltirib va ularni umumlashtirib, prof. V.D.Kamayev o'zining rahbarligida yozilgan darsligida «haqiqatdan ham — kapital o'zidan o'zi ko'payuvchi qiymat»⁶ deb yozadi. Bunday fikr D.D.Moskvin, V.Ya.Ioxin, A.G.Gryaznova, Ye.F.Borisov va boshqalarning rahbarligida nashr etilgan qator iqtisodiyot nazariyasi kitoblarida ham aytiladi. Lekin, Amerika va Yevropa mamlakatlaridan kirib kelgan «Ekonomiks» darsliklari va boshqa ayrim adabiyotlarda kapitalni barcha ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarida qo'llaniladigan moddiy vositalardan, ya'ni hamma turdagi mashinalar, asbob-uskunalar, inshootlar, zavod-fabrikalar, omborlar, transport vositalari va boshqa shu kabilardan iborat deb ko'rsatadi, unga pul va tovarni kiritmaydi. Bundan ko'rinib turibdiki, ayrim iqtisodchilar kapitalistik iqtisodiy tuzumning sotsial mohiyatini ochish uchun masalaga bir tomonlama qarab, ishlab chiqarish omillarining qiymatiga e'tiborni kuchaytirgan. G'arb iqtisodchilarining ayrimlari ham kapitalni bir tomonlama, ya'ni uning qiymat tarafini e'tiborga olgan bo'lsa, boshqalari esa iqtisodiy tushunchalarning tarixiylikini e'tibordan chetda qoldirib, uning moddiy ob'ektini, narsa va hodisalarning ashyoviy tomonini ko'rsatadilar. Shuning uchun ular kapitalni doimiy, o'zgarmas tushuncha deb, ishlab chiqarish vositalarini kapital deb ataydilar. Biz bu ikki xil tushunchani bir tanganing ikki tomoni, bir tushunchaning, ya'ni kapital tushunchasining ikki tomoni: uning bir tomoni moddiy va ashyoviy ko'rinishi, ikkinchi tomoni esa uning qiymat ko'rinishi ekanligini e'tiborga olamiz va uni bozor iqtisodiyoti sharoitida kapital deb ishlatamiz. Biz kapital deganda o'z egalariga daromad keltiradigan, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishning hamma sohalarida qo'llanadigan ishlab chiqarish vositalarini, sotishga tayyor turgan tovarlarni, yangi vositalar va ishchi kuchini sotib olishga mo'ljallangan pul mablag'larini, ularning ashyoviy tomoni va qiymatining birligini tushunamiz. Boshqacha qilib aytganda, «kapital» ham

⁶Караңг: Экономическая теория: Учеб. для студ. высш. учеб. заведений / Под ред. В.Д.Камаева. – 10-е изд., перераб. и доп. - М.: Гуманит. изд. центр ВЛАДОС, 2004, 217-бет.

qiymatga, ham naflilikka ega bo'lgan, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonida foydalaniladigan, yollanma mehnat (ishchi kuchi) tomonidan harakatga keltiriladigan vositalardir.

Hamma adabiyotlarda yerga deyarli bir xil tushuncha beriladi, ya'ni yer deganda tuproqning unumli qatlami, o'tloqlar, yaylovlar, suv, havo, o'rmon, qazilma boyliklar, umuman tabiiy resurslar tushuniladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida katta e'tibor beriladigan omillardan biri tadbirkorlik qobiliyatidir. Tadbirkor deb iqtisodiy resurslar, ya'ni ishlab chiqarish vositalari va ishchi kuchi resurslarining, tabiiy resurslarning bir-biriga qo'shilishini ta'minlaydigan, tashkilotchi, yangilikka intiluvchi, tashabbuskor, iqtisodiy va boshqa xavfdan, javobgarlikdan qo'rqmaydigan kishilarga aytiladi; bu xislatlar majmui esa tadbirkorlik qobiliyati deb yuritiladi. Hozirgi davrda ayrim adabiyotlarda axborot va uning vositalarini, ekologiyani ham alohida omil deb ko'rsatadilar. Bizning fikrimizcha, ular yer va kapitalda o'z ifodasini topadi. Shuning uchun ularni alohida omil deb qarashga hojat yo'q.

3-savol ►

Doiraviy aylanish va uning modellari

Tadbirkorlik kapitalining harakati bir doiraviy aylanish bilan to'xtab qolmaydi, balki u uzluksiz davom etib, takrorlanib turadi. *Doiraviy aylanishlarning bunday uzluksiz takrorlanib, yangilanib turishi tadbirkorlik kapitalining aylanishi deyiladi.* Makroiqtisodiy doiraviy aylanishlarning birinchi ancha mashhur tarixiy modeli «Kene jadvali» hisoblanadi. Unda F.Kene milliy iqtisodiyotning faoliyat qilishini uchta sinf (yer egalari, dehqonlar va hunarmandlar) o'rtasida mahsulot va pulning ayirboshlanish jarayoni orqali ko'rsatib beradi. Bunda milliy mahsulotni takror ishlab chiqarish jarayoni pul oqimlari doiraviy aylanishi sifatida aks ettiriladi. XX asrning 60-yillarigacha makroiqtisodiy doiraviy aylanishlar modelini takomillashtirish va boyitishga bir qator iqtisodchilar salmoqli hissa qo'shib, o'z yondashuvlarini ishlab chiqdi. Jumladan U. Mitchell kon'yukturali sikllarni tadqiq qilgan bo'lsa, R.Stoun va Dj. Mid S.Kuznets MHT asoslarini takomillashtirib, uni uy xo'jaliklari, tijorat korxonalar, davlat va chet elliklardan iborat to'rt sektorlarga ajratadi.

Fransua Kene
(1694-1774y.)



Ilmiy prognozlar va xalq xo'jaligini boshqarish usullarini ishlab chiqish maqsadida N.D.Kondratev rahbarligida mashhur iqtisodchilar (A.L.Vaynshteyin, A.A.Konyus, M.V.Ignatev, E.E.Slutskiy) tomonidan sobiq Sovet Rossiyasi va etakchi kapitalistik mamlakatlar iqtisodiy rivojlanishini har tomonlama tadqiq qilish asosida olingan ilmiy natijalari o'z vaqtida xalqaro darajada tan olindi.

O'ziga xos makroiqtisodiy muammolar doirasini aniq ajratish, ularni tahlil qilish uslubiyati va usullariga asos solish hamda bozor xo'jaligining faoliyat qilish tavsifi to'g'risidagi tasavvurda inqilob yaratish Dj.M.Keynsga tegishli bo'ldi.

Neoklassik yo'nalishdagi iqtisodchilar (A.Menger, U.Djevons, L.Valras, V.Poreto, A.Marshall) marjinal tahlil va iqtisodiy sub'ektlar xo'jalik faoliyatini optimallashtirish qoidalari yordamida bozor iqtisodiyotiga ishlab chiqarish resurslaridan to'liq va samarali foydalanganda tabiiy barqaror umumiy muvozanatlik xos bo'lishini tasdiqladi.

Ayrim iqtisodchilar ta'kidlaganidek iqtisodiy taraqqiyotdagi institutsionalizm oqimlari (konvergensiya konsepsiyasi, postindustrial jamiyat, jahonshumul muammolar iqtisodi) marjinal va muvozanatli usullarni inkor qilib evolyusion-sotsiologik usullarga ustuvorlik beradi.

Hozirgi zamon g'arb iqtisodiy adabiyotlarida doiraviy aylanishlar modeliga uy xo'jaliklari va korxonalar (firma)lar o'rtasida bozor vositalarida amalga oshiriladigan iqtisodiy bitimlar (resurslar, mahsulotlar va pul daromadlari oqimi) sifatida qaraladi. Bunda doiraviy aylanishlar modeli yopiq va ochiq iqtisodiyot uchun alohida tahlil qilinadi. Ularning yopiq iqtisodiyot uchun sodda va nisbat murakkab (davlat ishtirokidagi) turlari ajratiladi.

Dastlab makroiqtisodiy doiraviy aylanishlarning yopiq iqtisodiyot uchun nisbatan murakkab va birmuncha takomillashtirilgan modelini qarab chiqamiz. U tashqi iqtisodiy faoliyat va moliya – kredit tizimi orqali ro'y beradigan pul mablag'lari harakatini aks ettirmaydi. Biroq shu holida ham mazkur model takror ishlab chiqarishning klassiklar (K.Marks) tomonidan ilgari surilgan shartlari va tarmoqlararo balans modeli bilan bir qator umumiy jihatlarga ega. Doiraviy aylanishlarning grafik va jadval tasviridan mantiqan o'zaro uzviy bog'langan ikkita blokni ya'ni, ishlab chiqarish (I-II-III) va iste'mol (III-IV-I) blokini hamda to'rtta bo'g'in (kichik blok)ni ajratish mumkin. Bunda «A» bo'g'in resurs salohiyatini, «B» bo'g'in ishlab chiqarish imkoniyatini, «V» bo'g'in sotishga chiqarilgan tovarlar miqdorini va «G» bo'g'in iste'mol hajmini aks ettiradi. SHu asosda ulardan turli sub'ektlar tasarrufidagi resurslar, mahsulotlar hamda pul mablag'lari o'rtasidagi nisbat (xususiy muvozanatlik)lar va umumiy makroiqtisodiy muvozanatlikning asosiy shartlarini keltirib chiqarish mumkin.

I. Bu bosqichda iqtisodiy resurslar (R_i)ning uy xo'jaliklaridan resurslar bozori tomon harakati ro'y beradi va natijada resurs egalarining omilli daromad (D_0) lari (ish haqi, foiz, renta, me'yoridagi foyda) shakllanadi.


Uy xo'jaliklarining resurslar salohiyati (kapital, er, ishchi kuchi, tadbirkorlik layoqati) taklifi resurslar bozoridagi jami talabidan ortiqcha bo'lishi kerak, ya'ni $I > II$. Bu quyidagi holatlar bilan izohlanadi:

a) iqtisodiyotning samarali va me'yorida amal qilishi resurslar bozorida «tabiiy darajada»gi bo'sh iqtisodiy resurslar, shu jumladan, ishchi kuchi mavjud bo'lishini taqozo qiladi;

b) ishlab chiqarishni kengaytirib borish talabi ham resurslarning bozor talabidan iqtisodiy resurslar taklifi nisbatan ortiqcha bo'lishini zarur qilib qo'yadi.

Doiraviy aylanishlarning mazkur bosqichida uy xo'jaliklari tegishli resurs bozorlaridan o'zlari taqdim qilgan iqtisodiy resurslar uchun omilli daromadlarni (foiz (r), renta (R), ish haqi (IH), me'yorlaridagi foyda (Pm))ni o'zlashtiradi. Bu daromadlar resurslar bozorida talab va taklif ta'sirida shakllanib, alohida olingan resurslar narxi sifatida chiqadi.

II. Ishlab chiqaruvchilarning iqtisodiy resurslarga talabi (III) o'z miqdori va tarkibi bo'yicha resurslar bozoridagi ularning taklifi (II) ga mos kelishi kerak. Doiraviy aylanishlar modelining bu bosqichida korxonalar (firma)lar talab bildirgan resurslari evaziga tegishli sarf-xarajat (W)larni amalga oshiradi. Iqtisodiy resurslar aynan shu bosqichda ishlab chiqarish omillariga yoki umumli kapitalga (Ku) aylanadi.



D modeli dinamik bozor iqtisodiyoti pul, resurs va tovarlardan doimiy va tarkoriy foydalanishni taqozo etadi. Grafa 3.5 da tasvirlanganidek, aylanma harakatli grafa huddi shunday ko'rsatkichlarni ifodalaydi. E'tibor bering, diagramma ishlab chiqaruvchilar, alohida ho'jaliklar, resurslar bozori va tovarlar bozoriga bo'lingan⁷.

Doiraviy aylanishlar modelining iqtisodiy o'lchamlari va asosiy qo'rsatkichlari

Doiraviy aylanishlar modelining o'lchamlari va asosiy ko'rsatkichlari unda mujassamlashgan makroiqtisodiy muvozanatliklarda ifodalanadi.

Doiraviy aylanishlar modelida mujassamlashgan asosiy makroiqtisodiy muvozanatliklar quyidagilar:

- yalpi talab (I+III+V) va yalpi taklif (I+III+V) o'rtasidagi;
- tovarlar taklifi (III) va pul massasi (I+III+V) o'rtasidagi;

⁷ Campbell R. McConnell, Stanley L. Brue. Economics: Tamoyillar, muammolar va siyosat. O'nettinchi Nashr. 44 b.

- ishlab chiqarish (III) va iste'mol (I) hajmi o'rtasidagi;
- aholi daromadlari (I) va xarajatlari (IV) o'rtasidagi;
- alohida bozorlarda talab (II) va taklif (IV) o'rtasidagi;
- ishlab chiqarishchilar sarf xarajatlari (III) va pul daromadlari (IV) o'rtasidagi;
- davlat byudjeti daromadlari va xarajatlari o'rtasidagi va h.k.

Doiraviy aylanishlar modelidan mantiqiy mushohada qilish yo'li bilan makrodarajadagi bir qator qiymat mutanosibliklarni ham keltirib chiqarish mumkin. Bular quyidagilar:

- ishlab chiqarish natijalari – SMM («5») va iqtisodiy resurs sarflari («4») o'rtasidagi;
- ishlab chiqaruvchilar pul daromadlari («6») va sarf xarajatlari («4») o'rtasidagi;
- aholi daromadlari («2») va xarajatlari («8») o'rtasidagi;
- alohida tovarlarga talab («8») va ular taklifi («5») o'rtasidagi;
- tashqi savdo aylanmasida eksport va import o'rtasidagi (doiraviy aylanishlarning ochiq iqtisodiyot uchun modeli ma'lumotlari orqali aniqlanadi) va hakoza.

Doiraviy aylanishlar modelining tahlili quyidagi umumlashtiruvchi xulosalarni chiqarish imkonini beradi.

- iqtisodiy resurslar, mahsulotlar va pul mablag'larining birgalikdagi hamda milliy iqtisodiyotning turli darajasida ketma-ketlikda va yaxlitlikdagi bir-birini taqozo qiladigan harakati unga doiraviy aylanishlar shaklini beradi. Ayni vaqtda iqtisodiyotdagi oqimlar alohida turlari (resurslar, mahsulotlar, pul mablag'lari)ning makrodarajadagi harakati doiraviy aylanishlar modelida alohidalashgan bo'g'inni tashkil qilib, iqtisodiyot sektor (sub'ekt)larini bog'lovchi vosita sifatida chiqadi. Ularning yaxlitlikdagi harakati korxonalar va tarmoqlardan milliy iqtisodiyot darajasigacha bo'lan individual doiraviy aylanishlar jamlamasini tashkil qiladi;
- doiraviy aylanishlar jarayonida iqtisodiy oqimlar (resurslar, mahsulotlar, pul mablag'lari)ning barcha turlari bir-birini taqozo qiladi, ularning alohidalashgan va ayni vaqtda birgalikdagi harakati takror ishlab chiqarishning uzluksizligini ta'minlaydi hamda milliy iqtisodiyot faoliyat qilishining asosiy shart-sharoiti hisoblanadi.

Muhokama uchun savollar:

1. Iqtisodiy tizimlarni tasniflashning qanday yondashuvlari mavjud?
2. Iqtisodiy tizimlar almashinuvi nima bilan izohlanadi?
3. Ishlab chiqarishning 3 omili nazariyasi kimga tegishli?
4. Omilli daromadlarga tushuntirish bering.
5. Ishlab chiqarishning turlarini aytib bering.
6. Doiraviy aylanishlar modeli nimani ifoda etadi?